

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAKLLANIB BORISH SHAROITIDA MILLIY STATISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRIB BORISH ISTIQBOLLARI

Radjiyev Ayubxon Baxtiyorxonovich,
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2023-yil
Tasdiqlandi: 26-iyun 2023-yil
Jurnal soni: 7
Maqola raqami: 17
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v7i7.783>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

statistika, raqamli iqtisodiyot, platforma, buxgalteriya, soliq, axborot tizimlari, ma'lumotlarni yig'ish.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot shakllanib borish sharoitida milliy statistika tizimini rivojlantirib borish istiqbollari tadqiq qilingan. Statistika raqamli platformasi va uning ishlash tamoyillari hamda statistik, moliyaviy, buxgalteriya va soliq hisobotlarini topshirish jarayonlarini statistika raqamli platformasi bilan o'zaro integratsiyasi to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan, shuningdek, ushbu faoliyatni rivojlantirish yuzasidan fikr, mulohaza va xulosalar berilgan.

Kirish: Mamlakatimizda keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning olib borilishida milliy statistika tizimining asosiy vazifasi bo'lib jamiyatning statistik axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq, aniq, ilmiy asoslangan va o'z vaqtida taqdim qilinadigan rasmiy statistika bilan qondirish hisoblanadi.

Shu bilan birga hozirgi kunda davlat statistikasini yuritishda bir qator muammolar ham bor bo'lib, ular statistika faoliyatini samarali tashkil qilishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda va uni yanada takomillashtirishga to'sqinlik qilmoqda. Ma'muriy statistikani yig'ish bo'yicha idoralar tomonidan statistika faoliyati hajmining ortib borishi, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uchun turli uslubiyotning qo'llanishi, turli axborot tizimlaridan foydalanishi bir qator salbiy oqibatlariga olib olib kelishi mumkin, jumladan:

respondentlarga hisobot yukining ortib borishi va bir xil ma'lumotlarni bir necha marta yig'ilishi natijasida budget vositalarini samarasiz harajat qilish;

nomanishi bo'yicha bir-biriga judayam yaqin bo'lgan umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sonining ortib borishi, lekin ularni yig'ish va qayta ishlash uslubiyotining o'zaro farqlanishi;

bir xil ko'rsatkichlarni turli hisobot shakllari uchun bir necha marta hisob-kitob qilishlari bilan bog'liq bo'lgan respondentlar mehnat harajatlarining ortib borishi;

yig'ilayotgan statistik ma'lumotlar sifatining pasayishi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslubiyotining yagona ko'rinishda yuritilmasligi va metama'lumotlarning yagona tizimining yo'qligi, respondentlardan ma'lumotlarni yig'ish texnologiyasining turlichaligi ma'lum bir obyektiv muammolarni tug'diradi. Bundan tashqari davlat statistikasidagi mavjud axborot infratuzilma doirasida yuqoridagi muammolarga duch kelish mumkin. Birlamchi ma'lumotlarni kerakligidan ko'ra ko'p hajmda yig'ish muammosi ham mavjud bo'lib, ular statistika dasturlarini bajarish uchun umuman kerak bo'lmasligi ham mumkindir. Shunday qilib, respondentlardan qabul qilib olinadigan birlamchi statistik ma'lumotlar-ning miqdori va sifati umumlashtirilgan statistik axborotlarni shakllantirish uchun optimal ko'rinishda bo'lmasligi mumkin. Natijada bunday birlamchi statistik ma'lumotlardan foydalanish darajasi judayam past bo'lib, statistika dasturlarini bajarishda yoki tahliliy statistik axborotlarni shakllantirishda ham foydalanib bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili: Boshqaruv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechish va biznes-jarayonlarni takomillashtirishda AKT va axborot tizimlaridan sama-rali foydalanish masalalarining nazariyasi va uslubiyotini yanada takomil-lashtirishda O.Maxlup, S.Kennet, P.Jeyn, K.S. Laudon, J.P. Laudon, J.F. Neyman, M.Xammer, K.Shennon, N.Viner, B.S.Mknurlin kabi chet el olim-lari o'z ilmiy tadqiqotlari bilan ulkan hissa qo'shishgan.

K.S. Laudon, J.P. Laudonlar o'z tadqiqot ishlaridan axborot tizimlarini ishlab chiqish va iqtisodiyot tarmoqlarida samarali qo'llashning meto-dologiyasini taklif qilishgan. Ularning ilmiy ishlarida axborot tizimlarining infratuzilmasi, tarmoq texnologiyalari, axborot tizimlarini loyi-halash-tirish va ishlab chiqish, axborot texnologiyalarining infratuzilmasi kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Axborot tizimlarini boshqaruv jarayonlarida qo'llash, ularni tizim-ostilarini optimal loyihalashtirish, turli funksional masalalarni yechishda axborot tizimlaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda S.Kennet, P.Jeynlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan. Bundan tashqari, ular axborot tizimlarini tarmoq texnologiyalari sharoitida optimal faoliyat yuritishi bo'yicha o'z takliflarini berishgan.

Statistika faoliyatiga axborot tizimlarni keng joriy qilish, uning texnologiya, mexanizm va optimal yondashuvlari, statistik axborotlarning o'ziga xos xususiyatlari, statistik axborotlarni mashina asosida qayta ishlash texnologiyalari asoslari, reglament statistik masalalarni yechishni tashkil qilish, axborot xizmat ko'rsatish masalalarini yechishlarni V.P. Bojko o'z ilmiy ishlarida keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyot shakllanib borish sharoitida milliy statistika tizimini rivojlantirib borish istiqbollarning amaldagi holati mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi: Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday holat vujudga kelmoqdaki, unda foydalanuvchilarga umumlashtirilgan statistik axborotlar taqdim qilinib, ularni olish jarayonlari katta harajatlarni talab qilib, ulardan turli maqsadlarda foydalanish uchun imkoniyatlar cheklangandir. Birlamchi statistik axborotlarning yo'qotilishi ulardan boshqa turdagi statistik axborotlarni shakllantirishda foydalanishni cheklab qo'yadi, jumladan tahliliy axborotlarni ham ishlab chiqishda ulardan foydalanib bo'lmaydi. Hozirgi kunda rasmiy statistik axborotlar avvalom bor davlat va respublika boshqaruv organlari talablarini qondirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birgalikda, aniq, ilmiy asoslangan va o'z vaqtidagi rasmiy statistik axborotlarga bo'lgan jamiyatning talablari to'liq holda qoniqtirilmayapti, jumladan ushbu talablarning tezkorlik bilan o'zgarib turishi natijasida. Hozirgi kunda respublikamiz statistika tizimida ma'lumotlarni yig'ish ananaviy yondashuvlar, ya'ni elektron yoki ayrim hollarda qog'oz ko'rinishida amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda, raqamli texnologiyalarning hayotimizga keng kirib kelishi va raqamli formatdagi axborotlar hajmining jiddiy ortib borishi, statistik kuzatuvlar shakllari asosida ma'lumotlarni yig'ishdan alternativ manbalardan foydalanish uchun zamin yaratib bermoqda, jumladan respondentlarning hisob tizimidan bir-lamchi statistik ma'lumotlar yagona bazasiga ma'lumotlarni uzatishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 5-oktyabr 2020-yilda qabul qilingan 6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dastu-riy mahsulotlar joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, ushbu Farmon bilan qog'ozsiz elektron hujjat almashinuvi va ish yuritishni tashkil qilgan holda barcha ma'muriy

tartib-taomillarni va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish, faoliyatning ochiqligi va shaffoqligi hamda aholi punktlarida davlat xizmatlaridan foydalanish-ning kafolatlanganligini ta'minlash va idoralararo elektron hamkorlik jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari ham dolzarb qilib belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda statistika faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy qilish davlat statistika hisobotlarini topshiruvchi subyektlarga hisobot yuklarini kamaytirishga, biznes uchun yangi qulayliklarni yaratishga zamin yaratib boradi. Bu borada istiqbolda statistika raqamli platformasini (SRP) loyihalashtirish va statistika amaliyotiga keng joriy qilish kerak bo'ladi (1-rasm). Ushbu platformaga dissertatsiyaning oldingi boblarida keltirilgan statistikning avtomatlashtirilgan ish o'rinlari, davlat statistika hisobotlarini qabul qiluvchi statistika axborot tizimi va "Statistika" integratsiyalashgan axborot tizimi ham joylashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu platformaga boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari ham integratsiya qilinishi mumkin bo'lib, bu birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish uchun sarflanadigan harajatlar

miqdorini kamaytirishga olib keladi.

Taklif qilinayotgan statistika raqamli platformasini statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish jarayonlariga keng joriy qilish quyidagi masalalarni bajarishni talab qiladi:

rasmiy statistika axborotlarining jamiyat va biznesda bo'lgan o'rini orttirib borish;


ma'lumotlarni yig'ishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hisobiga respondentlarning hisobot yuklamalarini tubdan kamaytirish;

statistik ma'lumotlarni bir marta tahlil qilishda bir nechta manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borish;

barcha birlamchi statistik ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda tahliliy ko'rsatkichlarni shakllantirish va ulardan foydalanish;

rasmiy statistik hisoblarni yuritish borasidagi budget vositalari harajatlari hajmini kamaytirib borish;

birlamchi statistik ma'lumotlar asosida tahliliy axborotlarning shakllanishi hisobiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yuksaltirish.



1-rasm. Statistika raqamli platformasining tarkibiy tuzilishi.

Statistika raqamli platformasi – bu tashkiliy, metodologik, texnik, texnologik, axborot va huquqiy tadbirlar hamda qarorlar bo'lib, statistikani ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz avtomatlashtirishni ta'min-laydi hamda respondentlarga yuklamalarni maksimal kamaytirish, ma'lumotlarni yig'ishni biznes va aholi uchun qulay qilish, kundan-kunga ortib borayotgan foydalanuvchilarning statistik axborotlarga bo'lgan talabini tezkor holda qondirishni yo'lga qo'yadi.

Statistika raqamli platformasining statistika amaliyotiga joriy qilinishi raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi doirasida quyidagilarni ta'minlab berishi kerak bo'ladi:

respublikamizdagi barcha davlat boshqaruv organlariga onlayn rejimida bir martalik asosida statistik ma'lumotlarni taqdim qilinishini ta'minlash;


doimiy ravishda o'zgarib turadigan axborot ehtiyojlariga monan ravishda davlat boshqaruvi maqsadlari uchun umumlashgan statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va ulardan keng foydalanish imkoniyatini yaratib berish; davlat statistik kuzatuvlarida ishtirok

etishlari uchun rasmiy statistika foydalanuvchilari va respondentlarga me'yoriy-ma'lumotnovaniy axbo-rotlarni elektron shaklda olish imkoniyatini ta'minlash;

statistik, moliyaviy, buxgalteriya va soliq hisobotlarini topshirish jarayonlarini o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yish (2-rasm);

davlat boshqaruvi va biznes-jarayonlarini boshqarish uchun turli ko'rinishdagi tezkor statistik ma'lumotlardan foydalanish imkonini berish, jumladan statistik kuzatuvlar, ro'yxatga olishlar, ma'muriy va alternativ axborotlar manbalaridan ham foydalanish mumkin bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda statistika sohasida bir qator axborot tizimlari ishlab chiqildi va amaliyotga keng joriy qilindi, jumladan ular davlat statistika hisobotlarini onlayn qabul qilish axborot tizimi, tanlanma kuzatuvlarni elektron usulda o'tkazish axborot tizimlari, aholini ro'yxatga olishni tashkil qilish axborot tizimi, inflyatsiya darajasini hisoblash axborot tizimi va boshqalarni keltirish mumkin.



2-рasm. Statistika, moliyaviy, buxgalteriya va soliq hisobotlarini topshirish jarayonlarini statistika raqamli platformasi bilan o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yish.

Statistika raqamli platformasi doirasida davlat statistika kuzatuvlariga tushgan barcha subyektlarning yagona ro'yxatini yuritish ham mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda ushbu subyektlar korxon va tashkilotlarning yagona registri asosida yuritilib kelinmoqda. Unda faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar va vaqtinchalik faoliyatini to'xtatgan subyektlar bo'yicha ishlarni samarali tashkil qilishni talab

qilib, statistik kuzatuvlar qamrovini to'liq bo'lishini ta'minlash talab qilinadi. Statistik kuzatuvlarga tushadigan subyektlar katalogini markazlashgan holda tashkil qilinishi bir qator afzalliklarni beradi, shuning uchun ham yangi platformaning ishga tushirilishida ham ushbu yondashuvni saqlab qolish kerak bo'ladi.



3-рasm. Natijaviy statistika axborotlarini respondentlarga taqdim etish texnologiyasi.

Taklif qilinayotgan platforma doirasida faoliyat ko'rsatadigan "Davlat statistika hisobotlarini qabul qiluvchi axborot tizimi" respondentlarga universal veb-interfeysni taklif qilib, hisobotlar birlamchi hisob asosida shakllanishini yo'lga qo'yishi lozim bo'ladi. Foydalanish qulayligini yanada kengaytirish uchun shaxsiy kabinetlar shakllantirilib, unda respondentlar uchun kerak bo'lgan barcha axborotlar mujassamlanib, kabinetda topshirilishi kerak bo'lgan statistik hisobot shakllari nomlari, ularni to'ldirish bo'yicha yo'riqnomalar, tasniflagichlar, ma'lumotnomalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Unda subyektlar tomonidan "yagona oyna" prinsipi asosida turli xildagi hisobotlarni topshirish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilishi mumkin bo'ladi (3-rasm).

Bizning fikrimizcha, respondentlardan davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda taqdim qilishda "yagona oyna" texnologiyasini statistika amaliyotiga keng joriy qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- a) elektron shaklda birlamchi statistik ma'lumotlarni taqdim qilishning yagona texnologiyasini yaratish;
- b) me'yoriy-ma'lumotnomaviy axborotlarni markazlashgan holda yuritishning instrumentariyasini ishlab chiqish;
- v) respondentlardan elektron hisobotlarni "yagona oyna" texnologiyasi asosida yig'ish borasida me'yoriy-ma'lumotnomaviy axborotlarni shakllantirish va yuritishning idoralararo tartibini ishlab

chiqish;

g) respondentlarning elektron hisobotlari asosida kelib tushgan birlamchi statistik ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashning yagona tartibini yuritish.

Taklif qilinayotgan statistika raqamli platformasining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun statistika ishlarini strategik rejalashtirish jarayonlarini yuqori sifatda ta'minlash, mavjud barcha ma'lumotlar o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yish, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va taqdim qilish amaliyotini tubdan isloh qilish, idoralararo uslubiy bazani bir xillashti-rish ishlarini yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda statistika faoliyatida dissertatsiyaning oldingi boblarida keltirilganidek, davlat statistika hisobotlarini topshirishning e-Stat 4.0-avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida respondentlar tomonidan hisobotlar topshirish yo'lga qo'yilgan. Davlat boshqaruv organlari va kichik biznes subyektlari tomonidan topshiriladigan oylik, choraklik va yilliy davlat hisobotlarining barchasi yuqorida keltirilgan axborot tizimi asosida 100% elektron shaklda topshirilib kelinmoqda. Topshirilayotgan barcha hisobotlar to'g'ridan-to'g'ri Davlat statistika qo'mitasining markaziy serveriga kelib tushishi, hududiy boshqarmalarning hisobot jarayonlariga aralashishlari uchun imkoniyatlarni to'liq cheklab qo'ymoqda. Buning natijasida hisobotlarning shaffofligi va obyektivligi ta'minlanmoqda. Respublikamiz davlat statistika dasturini shakllantirish, yuritish va

uning ijrosini monitoring qilib borish jarayonlarini ta'minlash quyidagilarni nazara tutadi:

statistik kuzatuvlarga tushadigan obyektlarning yagona reyestrini tuzish va yuritish;

statistik kuzatuvlar shakllari va statistik ko'rsatkichlarini doimiy ravishda xatlovdan o'tkazish mexanizmini shakllantirish;

statistik kuzatuvlar shakllari va statistik ko'rsatkichlarning yagona reyestrini tuzish va yuritish;

turli davriylikdagi davlat statistika hisobotlari shakllari va ulardagi ko'rsatkichlarni xatlovdan o'tkazish va kerakli o'zgartirishlarni kiri-tish bo'yicha idoralararo komissiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish;

respublika statistika ishlarining bajarilishi holatini yuritish va shakllantirishning avtomatlashtirilgan instrumentariyasini joriy qilish.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, yagona me'yoriy-ma'lumotnomaviy axborotlar asosidagi platforma unga integratsiya qilingan idoralar axborot tizimlarining axborot massivlarini to'liq tartibga solishga imkon yaratadi. Me'yoriy-ma'lumotnomaviy axborotlar klassifikatsiyalashtirish kodlaridan maksimal detallashtirilgan holda foydalanish imkonini berishi statistik

ma'lumotlar ustidan yuqori darajada dezagregatsiya qilish asosida hisobkitoblarni amalga oshirish mumkin bo'lib, natijada esa foydalanuvchilarning o'ziga xos so'rovlarini ham qondirishi mumkindir. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashni ushbu platforma doirasida Markazlashgan tizim ta'minlab berib, uni DSQning markaziy serverlari negizida tashkil qilish kerak bo'ladi.

Oxirgi yillarda bir qator xalqaro tashkilotlar milliy va xalqaro darajada rasmiy statistikani turli ishlab chiqish jarayonlarini optimallashtirish va standartlashtirishga yo'naltirilgan namunaviy modellarni (GSBPM, GSIM, GAMS0, CSPA) amaliyotga keng joriy qilishga chorlamoqda (4-rasm). Birlashgan millatlar tashkilotining ushbu namunaviy modellari statistik axborotlarni yig'ish va qayta ishlashni unifikatsiyalashni ta'minlaydi, metama'lumotlar va statistik ma'lumotlarning integratsiyasiga erishadi, sifat standartlarini joriy qilishni ta'minlaydi va standart yondashuvlar asosida statistika faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonlarini osonlashtiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz statistika tizimida ham ushbu namunaviy modellarni bosqichma-bosqich amaliyotga keng joriy qilish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.




4-rasm. Rasmiy statistik hisobni yuritishning tarkibiy jihatlar.

Amaliyotda statistika ma'lumotlari ishlab chiqarish jarayonlarini har bir bosqichini yoritgan holda to'la anglab yetish va ko'ra olish imkoniyatini yaratish va pirovardida ularning ochiqligi va shaffofligi ta'minlash maqsadida mamlakatlarning milliy statistika idoralari tomonidan "Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy modeli"ni (GSBPM) amaliyotda keng foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda, ishlab chiqarilayotgan statistika ma'lumotining sharhiga (ma'lumotlar va metama'lumotlar) doir aniq bir qo'llanma mavjud emasdi. Shu bois, xalqaro statistika hamjamiyati "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli"ni (GSIM) ishlab chiqishga kirishgan (5-rasm). GSIM xalqaro miqyosda kelishilgan ta'riflar, atributlar va aloqalar uchun ma'lumot bazasi bo'lib, rasmiy statistikani ishlab chiqarishda foydalaniladigan ma'lumotlar GSIM

elementlarini tavsiflaydi. GSIM doirasidagi axborot obyektlariga misollar ma'lumotlar va metama'lumotlarni o'z ichiga oladi.

GSIM butun statistik ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan ma'lumotlarni tavsiflash uchun umumiy tilni taqdim etadi. GSIM foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlashdan statistik mahsulotlarni tarqatishgacha bo'lgan ushbu jarayonlarning bosqichlari o'rtasida o'tadigan ma'lumotlarni belgilaydi va tavsiflaydi. GSIM tegishli ma'lumotlarni boshqarish SDMX va DDI-L kabi almashish standartlari bilan mos keladi, lekin ular bilan yoki biron bir texnologiya bilan bevosita bog'liq emas. Umumiy asos sifatida GSIM rasmiy statistika bilan bog'liq ishlab chiqarish va joriy etish standartlarini modernizatsiya qilish, tartibga solish va uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi.



5-rasm. GSIM faoliyat ko'rsatishining umumiy sxemasi

Umuman olganda mazkur ikki model GSBPM va GSIM bir-birini to'ldirib, foydalanuvchi uchun taqdim etilayotgan statistika ma'lumotining qanday jarayonlar va bosqichlardan o'tib tayyorlanganligi, uning spetsifik (qamrovi, metodologik asoslari, davriyligi, hisob-kitobda qo'llaniladigan statistik formulalar va xokazo) jihatlari tushunarli tarzda yoritib beriladi.

Umuman olganda statistika idoralarida GSIM namunaviy modelini qo'llash quyidagilarni beradi:

taqdim etilayotgan statistik mahsulotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi;

statistik ma'lumotlarning sifatiga va xalqaro standartlarga mos kelishiga bo'lgan ishonchni oshiradi (statistik jarayon metama'lumotlarda aks etgani bois);

statistik ma'lumotlarni xalqaro darajada solishtirish va xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bazalarida aks ettirish imkoniyati yaratiladi.

Taklif qilinayotgan statistika raqamli platformada ham namunaviy modellarning prinsip va yondashuvlari o'z aksini topishi kerak bo'ladi. Davlat statistika hisobotlarini topshiruvchi respondentlarga yuklamalarni qisqartirish statistika raqamli platforma doirasida statistika tizimi oldida turgan asosiy masalalarda hisoblanadi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan doimiy ravishda statistik kuzatuvlarni optimallashtirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilib, statistik yuklamalarni minimallashtirish bo'yicha ham yangi instrumentlarni qidirib topish kerak bo'lmoqda.

Oxirgi besh yilda davlat statistika hisobotlaridan 14 tasi, tanlanma kuzatuvlardan 5 tasi va mavsumiy kuzatuvlardan esa 2 tasi qisqartirildi. Davlat statistika hisobotlari asosida yig'iladigan statistik axborotlarning hajmi ham borgan sari kamaytirilib borilmoqda. Turli vazirlik va idoralarning ma'lumotlaridan statistika faoliyatida keng foydalanish ham subyektlarga statistik yuklamalarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina rivojlangan davlatlarda rasmiy statistika axborotlarining ko'pgina hajmini milliy statistika xizmatlari ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantirib kelmoqda. Soliq ma'lumotlaridan keng foydalanish ham kichik biznes subyektlariga bo'layotgan statistik yuklamalarning kamayishiga olib kelmoqda. Albatta, unda soliq tizimining ma'muriy ma'lumotlarining obyektivligiga hech qanday shubha tug'ilmasligi kerakdir.

Statistika faoliyatida "yirik ma'lumotlar" texnologiyasidan keng foydalanish yanada detallashtirilgan xabarlarni olish imkonini yaratib berib, oldin kuzatilmagan holatlarni ham yo'lga qo'yishga imkon yaratadi, arzon statistik ma'lumotlarni olishga olib keladi va respondentlarning yuklamalarini kamaytiradi.

Bunga yaqqol misol bo'lib soliq qo'mitasining markaziy serveriga supermarketlar nazorat-kassa texnikalaridan to'g'ridan-to'g'ri kelib tushadigan ma'lumotlar hisoblanadi. Turli tovarlarning sotilishining hajmlari, iste'mol narxlari indeksi, solishtirma taqqoslash dasturining ijrosini ta'minlashda ushbu "yirik ma'lumotlar" dan foydalanishda iqtisodiy nuqtai-nazardan judayam ma'qul bo'ladi. Hozirgi kunda turli supermarketlarda sotilayotgan tovarlarning yagona tasniflanmasligi ushbu "yirik ma'lumotlar"dan statistika faoliyatida samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Agar, metodologik va

axborot-texnologik muammolarni to'g'ri hal qilsak, inflyatsiya darajasini aniqlash uchun ha oy minglab savdo nuqtalarida tanlanma kuzatuvlarni o'tkazmas edik. Bundan tashqari, ushbu "yirik ma'lumotlar" asosida hisob-kitob qilib chiqilgan iste'mol narxlari indeksining obyektivligi darajasi judayam yuqori bo'lar edi. Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan minglab kichik korxonalar va mikrofirmalar turli hisobotlarni topshirishdan ozod qilingan bo'lar edilar.

Bizning fikrimizcha, statistika raqamli platformasini amaliyotga joriy qilinishida quyidagi prinsiplarni bajarilishini ta'minlash kerak bo'ladi:

rasmiy statistikani turli manbalaridan olingan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi, solishtirilishi va to'g'ri interpretatsiya qilinishi;

ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayonlarini rejalashtirishning shaffofligi va qiymatining optimalligi;

ishlab chiqilayotgan statistik ma'lumotlarning obyektivligi va adekvatligi;

taqdim qilinayotgan statistik ma'lumotlarning o'z vaqtidaligi va dolzarbliligi;

turli foydalanuvchilar kategoriyasining statistik ma'lumotlarga kirishining osonlashtirilganligi;

ma'lumotlarning alternativ manbalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Qishloq xo'jaligi statistikasini shakllantirish va e'lon qilishda raqamli texnologiyalarning yana bir turi bo'lmish sputnikning "yirik ma'lumotlar"idan keng foydalanish hisoblanadi. Sputnikdan olingan tasvirlar bilan fermer xo'jaliklari tomonidan topshiriladigan davlat statistika hisobotlarining o'zaro solishtirilishi natijasida mavjud turli tafovutlarni aniqlashga imkon yaratadi. Ekin ekilgan maydonlarning hisobini to'g'ri yuritishda va ekin turlarini ham aniq hisoblashda sputnikdan olingan tasvirlar judayam statistiklarga yordam beradi.

Ijtimoiy-demografik statistikani samarali yuritishda ham raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida biror marta ham o'tkazilmagan aholini ro'yxatga olish jarayonlarida ham raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchidan, ro'yxatga olish jarayonlarini Internet tarmog'i asosida keng tashkil qilish sarf-harajatlarni minimallashtiradi, ikkinchidan, xonadonma-xonadon yurib aholini ro'yxatga olishda elektron planshetlardan foydalanish ham iqtisodiy jihatdan eng maqbul variant hisoblanadi. Ushbu raqamli texnologiyalar funksional imkoniyatlaridan foydalanish qog'ozli usulga nisbatan deyarli ikki barobar qilinadigan xarajatlar hajmini qisqartiradi. Elektron planshetlardan aholini ro'yxatga olishda foydalanish so'rovlar vaqtini qisqartiradi, ma'lumotnomalarga aholining tezkor kirishini ta'minlaydi, kiritilayotgan ma'lumotlarni so'rovnomanini o'tkazish vaqtida nazorat qilish imkonini paydo bo'ladi, kuzatuv o'tkazish jarayonlarini avtomatlashtirilgan holda monitoring qilib borish mumkin bo'ladi va ushbu planshetlardan boshqa ro'yxatga olish jarayonlarida ham foydalanish mumkin. Bularning barchasi birlamchi ma'lumotlarning sifatini yuksaltiradi va yakuniy jadvallarni olish muddatlarini ham qisqartiradi hamda statistik axborotlarga bo'lgan talabni aniqlash va baholashga zamin yaratadi (6-rasm).



6-рasm. Statistika axborotlarga bo'lgan talabni aniqlash va baholash.

Statistika raqamli platformasi doirasida statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning yagona texnologik bazasiga bosqichma-bosqich o'tish uchun:

1) statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha bosqichlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni qamrab olgan yagona markazlashtirilgan instrumentariya va formallashtirilgan qoidalarni yaratish;

2) statistik ma'lumotlarni qayta ishlashni tartibga soluvchi yagona metodologik holatlarni ishlab chiqish;

3) statistik ma'lumotlarni qayta ishlash qoidalarni shakllantirish va tavsiflash tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni ishlab chiqish;

4) statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning yagona markazlashtirilgan instrumentariyasini ishlab chiqish;

5) statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning yagona metodologik asoslarini amaliyotda to'liq qo'llanishini ta'minlash.

Xulosa va takliflar. Statistika raqamli platformasini yaratish statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va tarqatishning yangi tarkibiy va funksional modeliga o'tishni ta'minlab, ma'lumotlarning yagona axborot maydoni prinsiplarini amalga oshirish, ma'lumotlar yangi sifatini, statistik hisoblarining o'zaro aloqadorligini, birlamchi statistik ma'lumotlarning bir marta taqdim qilinishi va ulardan ko'p marotaba foydalanishini va ushbu platformaning mamlakatimizda shakllanib

borayotgan raqamli iqtisodiyotga integratsiya bo'lib borishini ta'minlaydi.

Taklif qilinayotgan ushbu modelning amaliyotga joriy qilinishi jamiyat va davlatning statistik axborotlarga bo'lgan talabini samarali ta'minlashni yuksaltiradi, barcha boshqaruv bo'g'inlarida statistik hisob bilan bog'liq bo'lgan budjet harajatlarini qisqartiradi, respondentlarga bo'lgan hisobot yukini bir necha marotaba kamaytiradi, statistik hisobni yuritish doirasida idoralararo o'zaro hamkorlikning samaradorligi va o'zaro kelishib ishlashini ta'minlaydi, statistik hisobda band bo'lgan xodimlar sonini qisqartiradi va statistik axborotlarni o'z vaqtida taqdim qilishga imkon yaratadi.

Statistika raqamli platformasini ishlab chiqish, undan foydalanish va takomillashtirish quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga olib keladi:

a) yig'iladigan oylik, choraklik va yillik davlat statistika hisobotlaridagi ko'rsatkichlik sonini tubdan qisqartiriladi;

b) respondentlarga tushadigan yuklamlar jiddiy qisqartiriladi;

v) hisobot davrida yig'iladigan birlamchi statistik ko'rsatkichlarni yig'ish muddati qisqaradi;

g) chiquvchi rasmiy statistika axborotlarining chiqish muddatlari qisqaradi;

d) statistika faoliyati va rasmiy statistik hisoblarni yuritish jarayonlariga jalb qilingan inson resurslarining qisqarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 5-oktyabrda PF-6079-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda "“O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5598-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5349-son farmoni.

4. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Методологические аспекты влияния информационного общества на инновационное развитие

экономики. Монография. Ташкент: Фан ва технологиялар. 2016. - 134 с.

5. Бегалов Б.А., Мусалиев А.А. Информационно-коммуникационные технологии в национальной экономике. – Т.: Фан, 2008. – 146 с.

6. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Информационно-коммуникационные технологии в эффективной организации статистической деятельности в условиях формирования инновационной экономики. /Монография –Т.: Фан, 2013. – 158 с.

7. www.tstu.ru - nauchniy jurnal «Informatsionnie protsessi i upravleniye».

8. www.mtc.uz – O'zbekiston Respublikasi Axborot va kommuni-katsiyalarni rivojlantirish vazirligi rasmiy veb sayti.

9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti.